




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

14 sentyabr, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

(20 oktabr 2025 yildan 14 sentyabr 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,318% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 6,493% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,645% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich 9,802% darajaga oshdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,802% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,247% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,362% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,295% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,341% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,435% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,525% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,64% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich pasayib — 3,62 darajasida yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,647% (3 oylik) va 2,82% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,82% (6 oylik) va 2,679% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 944,4 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 493,9 million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 789 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib 11 765 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 1,56% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




14.09.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *OFB da* qayd etilgan – 11 780 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 11 785 – 11 820 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Anor bankda* qayd etilgan – 11 740 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 11 730 – 11 705 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi



EUR-USD dinamikasi



USD/RUB: rubl mustahkamlandi

7–11-sentabr kunlari USD/RUB kursi 86,6 rubldan 84,6 rublgacha pasaydi. 8-sentabr kuni kurs qisqa muddatli o'sish kuzatilib, 87,3 rublgacha yetganidan so'ng, rubl mustahkamlanish tendensiyasiga o'tdi. Keyingi kunlarda kurs pasayishda davom etdi: 9-sentabr kuni 86,2 rublni, 10-sentabr kuni 85,5 rublni, 11-sentabr kuni esa 84,6 rublni tashkil etdi. Shunday qilib, ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida dollar rublga nisbatan qariyb 2,3 foizga arzonlashdi. Rubl dinamikasiga eksportyorlar tomonidan xorijiy valyuta taklifining oshishi, shuningdek, Rossiya valyutasiga bo'lgan talabning saqlanib qolishi ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.



RUB/CNY: rubl yuanga nisbatan mustahkamlandi


7–11-sentabr kunlari RUB/CNY kursi 12,3 rubldan 12,1 rublgacha pasaydi. 8-sentabr kuni kurs 12,4 rublgacha ko'tarilganidan so'ng, pasayish tendensiyasiga o'tdi va ko'rib chiqilayotgan davr yakuniga kelib minimal darajaga tushdi. Kursning umumiy pasayishi qariyb 1,6 foizni tashkil etdi. Bu rublning Xitoy valyutasiga nisbatan mustahkamlanganini ko'rsatadi. Rossiya valyutasini ichki bozorda xorijiy valyuta taklifining oshishi hamda rublga bo'lgan barqaror talab qo'llab-quvvatlagan bo'lishi mumkin. Joriy bozor sharoitlari saqlanib qolgan taqdirda, RUB/CNY kursida mo'tadil pasayish tendensiyasi davom etishi mumkin.



EUR/USD: kurs nisbatan barqarorligicha qolmoqda

7–11-sentabr kunlari EUR/USD kursi deyarli o'zgarmadi — 1,1635 dan 1,1617 gacha pasaydi. 9-sentabr kuni 1,1653 gacha biroz ko'tarilganidan so'ng, valyuta juftligi pasayish tendensiyasiga o'tdi va ko'rib chiqilayotgan davrni 1,1617 darajasida yakunladi. Umuman olganda, kursdagi o'zgarish qariyb 0,2 foizni tashkil etdi, bu esa yevroning dollarga nisbatan nisbatan barqarorligini ko'rsatadi. EUR/USD dinamikasiga Yevropa Markaziy banki va AQSh Federal zaxira tizimining pul-kredit siyosatiga oid bozor ishtirokchilarining kutilmalari, shuningdek, Yevropa va AQSh valyutalariga bo'lgan talabdagi o'zgarishlar ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil



Oltin: yuqori volatillik fonida kotirovkalarning pasayishi



7–11-sentabr kunlari oralig'ida oltin narxi hafta davomida sezilarli tebranishlar kuzatilganiga qaramay, 4 404,7 dan 4 347,3 gacha pasaydi. 10-sentabr kuni kotirovkalar 4 315,7 gacha tushganidan so'ng, keyingi kuni qayta tiklandi. Ko'rib chiqilayotgan davr yakunlariga ko'ra, oltin qiymati hafta boshidagi darajaga nisbatan qariyb 1,3 foizga pasaydi. Kotirovkalar dinamikasiga himoya aktivlariga bo'lgan talabning o'zgarishi, shuningdek, bozor ishtirokchilarining AQSh Federal xazina tizimining kelgusidagi pul-kredit siyosatiga oid kutilmalari ta'sir ko'rsatishda davom etdi. Qisqa muddatli istiqbolda oltin narxlarida yuqori volatillik saqlanib qolishi mumkin.

Brent: yuqori volatillik fonida kotirovkalarning o'sishi



7–11-sentabr kunlari oralig'ida Brent markali neft narxi bir barrel uchun 97,0 dollardan 104,61 dollargacha oshib, qariyb 7,8 foizga o'sdi. 10-sentabr kuni kotirovkalar 107,63 dollargacha ko'tarilgach, keyinchalik korreksiya natijasida 104,61 dollargacha pasaydi. Kotirovkalar dinamikasiga bozor ishtirokchilarining jahon neft bozoridagi taklif hajmiga oid kutilmalari hamda saqlanib qolayotgan geosiyosiy xatarlar ta'sir ko'rsatdi. Mahalliy maksimumdan keyingi korreksiyaga qaramay, Brent kotirovkalari ijobiy dinamikani saqlab qoldi. Qisqa muddatli istiqbolda neft kotirovkalarida yuqori volatillik saqlanib qolishi mumkin.

Gaz: yuqori volatillik fonida kotirovkalarning o'sishi



7–11-sentabr kunlari oralig'ida gaz narxi 85,2 dan 94,0 gacha oshib, qariyb 10,3 foizga o'sdi. Hafta boshida kotirovkalarning keskin o'sishi kuzatilib, narx 96,3 darajasiga yetdi. Shundan so'ng kotirovkalar korreksiyaga uchrab, ko'rib chiqilayotgan davrni 94,0 darajasida yakunladi. Hafta yakunlariga ko'ra, gaz narxi davr boshidagi darajadan sezilarli darajada yuqori bo'lib qoldi. Kotirovkalarning o'sishini bozor ishtirokchilarining talab va taklif muvozanatiga oid kutilmalari hamda energetika bozorida saqlanib qolayotgan noaniqlik qo'llab-quvvatladi. Yuqori volatillik ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida kotirovkalarda sezilarli tebranishlar kuzatilganini ko'rsatadi. Qisqa muddatli istiqbolda gaz kotirovkalarida yuqori volatillik saqlanib qolishi mumkin.